

## SHARTNOMA № 3

(XIZMAT KO'RSATISH VA ISHLARNI BAJARISHGA OID)

Samarqand shahri

«18» yanvar 2022 yil

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 iyundagi № 532-sonli qarori asosida Veterinariya xizmati mutaxassislik bo'yicha malakasini oshirish ishlarni bajarish maqsadida Samarqand veterinariya meditsinasi instituti huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi nomidan Markaz direktori v.v.b. R. Pardayev, amaldagi markaz Ustaviga muvofiq bundan buyon "Ijrochi" deb ataluvchi bir tomondan va Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi rahbari M.Alimbetov bundan buyon "Buyurtmachi" deb ataluvchi, ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani tuzdik.

№	Xizmatlar nomi	O'lchov birligi	Tinglovchilar soni	Bahosi	Summasi
1	Qayta tayyorlash va o'qitish xizmati	dona	1	898942	898942

Summa so'z bilan: Sakkiz yuz to'qson sakkiz ming to'qqiz yuz qirq ikki so'm

### I.Shartnoma predmeti.

1.1. *Buyurtmachi* tinglovchilarni yuboradi. *Ijrochi* shartnomada nazarda tutilgan darajada xodim va mutaxassislarni o'qitish xizmatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. O'qish O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasi asosida olib boriladi.

1.3. Mashg'ulotlar institut auditoriyalarida yoki tayanch korxonalarida (sayyor holda) o'zbek tilida olib boriladi.

### 2. Tinglovchilar soni, o'qish narxi va hisob-kitob tartibi.

2.1. *Ijrochi* buyurtmachiga 1 nafar tinglovchini malaka oshirish kurslarida o'qitib beradi.

2.2. Bitta tinglovchini yigirma kun davomidagi malakasini oshirish qiymati **898942 (Sakkiz yuz to'qson sakkiz ming to'qqiz yuz qirq ikki)** so'm etib belgilangan.

2.3. *Buyurtmachi* shartnoma summasining 30 foizini shartnoma tuzilib, G'aznachilik boshqarmasi orqali tasdiqdan o'tgandan keyin 3 kalendar ish kuni muddatda *Ijrochining* hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. *Buyurtmachi* shartnoma summasining qolgan 70% qismini o'qishning dastlabki 10 kalendar ish kunida *Ijrochining* hisob raqamiga o'tkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.5. Ikki tomonlama tasdiqlangan malaka oshirish muddatlari jadvaliga muvofiq 5 kun mobaynida tinglovchi uzrsiz sabablar bilan o'qishga kelmagan taqdirda *ijrochi* hisobiga o'tgan mablag' *buyurtmachiga* qaytarilmaydi.

### 3. Ijrochining majburiyati.

3.1. O'qish jarayoni sifatiga va tashkil qilinishiga mas'ul hisoblanadi;

3.2. Tinglovchilarni o'quv materiallari, texnik vositalar va kompyuter texnikalari bilan ta'minlaydi;

3.3. O'qish tugagach, tinglovchilarga belgilangan tartibda hujjat Sertifikat beriladi.

3.4. Byudjet xarajatlaridan maqsadli va oqilona foydalanish uchun tinglovchilar guruhini shakllantirishda to'ldirish darajasini 25 tadan kam bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

### 4. Buyurtmachining majburiyati.

4.1. Ikki tomonlama tasdiqlangan malaka oshirish muddatlari jadvalida nazarda tutilgan miqdordagi tinglovchilarni o'z muddatida o'qishga yuborishni ta'minlaydi;

4.2. Shartnomada belgilangan tegishli mablag'ni *ijrochi* hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazadi, to'lov muddati kechiktirilgan har bir kun uchun shartnoma summasining 50% dan oshmagan holda 0.1% penya to'laydi.

2022 yil «18» yanvarda tuzilgan № 3 sonli shartnomaning 1-varag'i

### 5. Tomonlar javobgarligi.

- 5.1. *Buyurtmachi* va *ijrochi* ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarmasa yoki lozim bo'lgan darajada bajarmasa, amaldagi qonunlarga muvofiq javobgar hisoblanadilar.
- 5.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasida hosil bo'lgan kelishmovchiliklar qonunda belgilangan tartibda hal etiladi.

### 6. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi.

- 6.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday qo'shimcha va o'zgartirish yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikki tomon imzolagan hollardagina haqiqiy kuchga ega bo'ladi.
- 6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik kodeksi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.
- 6.3. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga 3 kun muddat ichida ogohlantirish xati yuboradi.

### 7. Nizolarni hal qilish tartibi.

- 7.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.
- 7.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ular Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal qilinadi.

### 8. Fors major holatlar

- 8.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar "yong'in, suv toshqini va boshqa shu kabi holatlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari", agar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda majburiyat bajarilmaganligi uchun tomonlar javobgarligidan ozod etiladi.
- 8.2. Yuqoridagi holatlar yuzasidan darhol xabarnoma yuborilishi majburiydir.

### 9. Boshqa shartlar.

- 9.1. Shartnomani tomonlar imzolab, hududiy G'aznachilik bo'limida ro'yhatga olingan kundan kuchga kirib, 2022 yilning 31 dekabriga qadar amal qiladi.
- 9.2. Ushbu shartnoma har ikki tomon uchun bittadan 2 nusxada tuzildi. Har ikki nusxa bir xil kuchga ega.

### Tomonlarning rekvizitlari:

#### "BUYURTMACHI"

Toshkent viloyati Oqq o'rgon tumani  
Veterinariya va chorvachilikni  
rivojlantirish b o'limi  
Oqq o'rgon tumani furqat k o'chasi № 3  
Tel: 90.3320465  
SH h/r: 400122860272067042133250001  
INN: 200568560 OKED 22200  
Moliya vazirligi G'aznachiligi Toshkent  
viloyati g'aznachilik boshqarmasi  
Yagona g'azna  
h/r: 23402000300100001010 Bank :  
Tosh.sh MBBB XKKM MFO:00014,  
INN:201122919



M.O.:

M.Alimbetov

#### "IJROCHI"

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti huzuridagi  
Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini  
oshirish markazi Samarqand shahri, M.Ulug'bek  
ko'chasi, 77 uy tel./faks: 8(366)234-06-17  
sh/h: 400110860184017096200250002  
INN:306606577 OKED:85590 Moliya vazirligi  
G'aznachiligi Samarqand viloyati g'aznachilik  
boshqarmasi Yagona g'azna  
h/v:23402000300100001010 Markaziy bank XKKM  
Toshkent shahri boshqarmasi MFO:00014  
2022.09.29

Direktor R. Pardayev

Yuris G'.Toyirov

